FARG‘ONA VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# FARG‘ONA VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

2022- yil yanvar-avgust

# 2022- yil yanvar-avgust oylari uchun Farg‘ona viloyatida qurilish ishlari



**Joriy yilning yanvar-avgust oylariga,**

Farg‘ona viloyatida jami 5 216,8 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2021- yilning yanvar- avgust oylariga nisbatan 109,4 %ni tashkil etdi.

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %da




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha bo‘linadi.




***Ma’lumot uchun:*** *qurilish ishlari hajmi bu — o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.*

**2022- yil yanvar-avgust oylaridagi Farg‘ona viloyati qurilish ishlari**

## 2022- yil 1-sentabr holatiga ko‘ra qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar



**Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2021- yilning mos davri bilan solishtirganda o‘sish sur’ati 106,5 % oshgan (233 birlik).**

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo‘nalishlari kesimida qaraganda:

Binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 55,3 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 106,2 foizga oshgan (123 birlik);

Fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 12,5 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 123,4 foizga oshgan (90 birlik);

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 32,2 foiz ulushni va 101,7 foiz o‘sish sur’atini tashkil etdi (20 birlik).






# Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar, birlik

| | holatiga: | | o‘tgan yilga nisbatan, %da |
|---|---|---|---|
| | 01.08.2021- y. | 01.08.2022- y. | |
| Farg‘ona viloyati | 3577 | 3810 | 106,5 |
| | | | |
| Farg‘ona sh. | 958 | 1038 | 108,4 |
| Qo‘qon sh. | 354 | 358 | 101,1 |
| Quvasoy sh. | 130 | 131 | 100,8 |
| Marg‘ilon sh. | 348 | 329 | 94,5 |
| Oltiariq | 116 | 142 | 122,4 |
| Qo‘shtepa | 110 | 114 | 103,6 |
| Bag‘dod | 161 | 175 | 108,7 |
| Buvayda | 137 | 142 | 103,6 |
| Beshariq | 95 | 99 | 104,2 |
| Quva | 153 | 155 | 101,3 |
| Uchko‘prik | 198 | 208 | 105,1 |
| Rishton | 85 | 107 | 125,9 |
| So‘x | 69 | 88 | 127,5 |
| Toshloq | 146 | 144 | 98,6 |
| O‘zbekiston | 91 | 104 | 114,3 |
| Farg‘ona | 113 | 141 | 124,8 |
| Dang‘ara | 140 | 142 | 101,4 |
| Furqat | 80 | 87 | 108,8 |
| Yozyovon | 93 | 106 | 114,0 |

## 2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra Farg‘ona viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, %da







Joriy yilning yanvar-avgust oylariga, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 637,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 131,0 %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yilning mos davridagi ko‘rsatkich darajasidan 2,1 % punktga ko‘payib, 12,2 %ni tashkil etdi.

## 2022- yil yanvar-avgust oylariga yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




***Ma’lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Marg‘ilon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 36,1 %i yoki 2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 102,6 % o‘sish sur’ati), Farg‘ona shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 30,9 %i yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 202,8 % o‘sish sur’ati) va Qo‘qon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 10,4 %i yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 100,4 % o‘sish sur’ati)ga to‘g‘ri keldi.***



## Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2022- yilning yanvar-avgust oylariga kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 67,9 %i to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-avgust oylariga ko'rsatkichiga nisbatan 1,6 foizga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan 105,5 %ni tashkil etgan holda 3 542,1 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



### Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, %da




*Ma'lumot uchun: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Farg'ona shahri (1 061,1 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 104,3 %), Marg'ilon shahri (486,0 mlrd. so'm yoki 130,3 %), Qo'qon shahri (244,5 mlrd. so'm yoki 98,4 %) va Qo'shtepa tumani ( 207,1 mlrd. so'm yoki 160,9 %) to'g'ri keldi.*

## Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 19,9 %ni tashkil etdi yoki 1 037,3 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 112,1 %ni tashkil etdi.




## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 274,1 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 4 942,7 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 5,3 % va 94,7 %ni tashkil etdi.




2022- yil yanvar-avgust oylaridagi
Farg‘ona viloyatida qurilish ishlari

## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

## 2022- yil yanvar-avgust oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 70,6 %i yoki 3 681,2 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.




Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 498,5 mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 13,5 %ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 2 257,8 mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 61,4 %ni tashkil etdi.



Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 924,9 mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 25,1 %ni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida qurilish ishlari
## 2022- yil yanvar-avgust oylarida

| | Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m) | O‘sish sur’ati, %da | Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya va qayta qurollantirish (mlrd. so‘m) |
|---|---|---|---|
| **Farg‘ona viloyati** | 5 216,8 | 109,4 | 3 681,2 |
| **Farg‘ona sh.** | 1408,3 | 106,7 | 1084,2 |
| **Qo‘qon sh.** | 380,8 | 104,7 | 291,9 |
| **Quvasoy sh.** | 120,6 | 96,7 | 97,5 |
| **Marg‘ilon sh.** | 743,0 | 110,6 | 585,7 |
| *tumanlar:* | | | |
| **Oltiariq** | 187,1 | 113,2 | 117,1 |
| **Qo‘shtepa** | 294,7 | 142,4 | 171,7 |
| **Bag‘dod** | 232,7 | 104,3 | 136,4 |
| **Buvayda** | 176,2 | 130,8 | 114,5 |
| **Beshariq** | 130,7 | 132,2 | 71,8 |
| **Quva** | 124,5 | 80,9 | 106,6 |
| **Uchko‘prik** | 183,1 | 115,6 | 105,3 |
| **Rishton** | 86,7 | 104,7 | 58,2 |
| **So‘x** | 166,4 | 156,1 | 88,8 |
| **Toshloq** | 221,9 | 141,4 | 140,1 |
| **O‘zbekiston** | 124,7 | 94,8 | 118,0 |
| **Farg‘ona** | 195,1 | 106,3 | 89,9 |
| **Dang‘ara** | 158,8 | 77,5 | 108,8 |
| **Furqat** | 102,5 | 71,0 | 72,5 |
| **Yozyovon** | 179,0 | 132,4 | 122,2 |

* Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda

**2022- yil yanvar-avgust oylaridagi**
**Farg‘ona viloyatida qurilish ishlari**



# Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari




*Ma’lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Bino va inshootlar qurilishi

**Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 10,7 %ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-avgust oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan 1,9 % punktga ko‘paydi.**

**Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar-avgust oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan 2,3 % punktga kamayib, 62,8 %ni tashkil etdi.**

**Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yilning yanvar-avgust oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan 0,4 % punktga ko‘payib, 26,5 %ni tashkil etdi.**

***Ulushi, %da***

Yirik qurilish tashkilotlari | Kichik korxona va mikrofirmalar | Norasmiy sektor






2022- yil yanvar-avgust oylaridagi
Farg‘ona viloyatida qurilish ishlari

# Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlar

Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 17,6 %ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 2,6 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 81,2 % (1,9 % punktga ko‘paydi ) hamda norasmiy sektorning ulushi 1,2 %ni tashkil etdi (0,7 % punktga ko‘paydi).



***Ulushi, %da***



# Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 1,3 % punktga ko‘paydi va 13,1 %ni tashkil etdi. Qolgan 86,9 %i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2021- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 1,3 % punktga kamaydi.






2022- yil yanvar-avgust oylaridagi
Farg‘ona viloyatida qurilish ishlari

## Qurilish ishlari hajmi yuqori shahar va tumanlar






***Ma’lumot uchun:*** *qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko‘rsatkichi Farg‘ona sh. (1 408,3 mlrd. so‘m), Marg‘ilon sh. (743,0 mlrd. so‘m), Qo‘qon sh. (380,8 mlrd. so‘m), hamda Qo‘shtepa t. (294,6 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.*

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi**
**Tel.: 73 241-98-42**